

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DUSANOV SHUXRAT ABDIRAZAKOVICH

**BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA IRODAVIY
SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Dusanov Shuxrat Abdirazakovich

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning
psixologik xususiyatlari..... 3

Дусанов Шухрат Абдиразакович

Психологические особенности развития волевых качеств у будущих учителей
физического воспитания..... 23

Dusanov Shuxrat Abdirazakovich

Psychological features of the development of volitional qualities in future physical
education teachers 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DUSANOV SHUXRAT ABDIRAZAKOVICH

**BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA IRODAVIY
SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/P907 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yakubova Guzal Asatullayevna
psixologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Umarov Baxriddin Mingboevich
psixologiya fanlari doktori, professor

G'ofurov Azizbek Umarjonovich
psixologiya fanlari doktori(DSc),dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B. Atabaeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T. Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda insonning o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, biror faoliyatga qat'iyat bilan kirishishi, qiyinchilik va to'siqlarga qaramasdan mazkur ishni amalga oshirishda irodaviy sifatlari orqali shijoat ko'rsatishi, tirishqoqlik va tashabbuskorlik namoyon etishi eng dolzarb ahamiyatli masala sifatida shaxs muvaffaqiyatli faoliyatining garovi hisoblanadi. Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda «insonlarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlaridagi buzilishlar, o'zini-o'zi nazorat qila olmaslik, o'zini-o'zi boshqara olmaslik, yoshlar o'rtasida suitsidial xulq sodir etilishining keskin oshishi, shaxslararo munosabatlardagi agressivlik holati, inson ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlar, faoliyat samaradorligi keskin darajada pasayib ketishi shaxsda irodaviy sifatlarning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liqligi»¹ qayd etilgan. Bu borada psixik voqelikka ta'sir etuvchi ichki, tashqi, ijtimoiy, tabiiy omillarni aniqlash, psixik imkoniyatlarni optimallashtirish usullarini ishlab chiqish va tatbiq etish masalalari dolzarb ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida shaxsda irodani shakllanishi psixodiagnostikasini amalga oshirish, shaxsning ichki irodaviy imkoniyatlari, yosh, jins xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi (APA) ma'lumotlariga ko'ra, 70% professional sport jamoalari sportchilar uchun psixologik treninglar o'tkaziladi, bunda esa asosiy diqqat irodani mustahkamlashga qaratiladi. Bu borada aynan psixologlar sportchilarni motivatsiya, stressni boshqarish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda faol ishtirok etishadi. Iroda fenomenining o'ziga xos qonuniyatlarini, shaxs faoliyati samaradorligi uchun ta'sirini, shaxsda qat'iyat, tashabbus hamda sobitqadamlik uchun zaruriy jihatlarini ilmiy tadqiq etish hamda rivojlantirish yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb ahamiyatli bo'lib, uni olib borish zarurati yuzaga keladi.

Yangi O'zbekiston so'nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligini ta'minlash, tashabbuskorligini yuksaltirish, intizomlilik, irodaviylik, shaxsiy javobgarlik tuyg'ularini shakllantirishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Yoshlarni vatanparvarlik fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash»² vazifalariga asoslanib, yoshlarning irodasini rivojlantirish va mas'uliyat hissini takomillashtirish, irodaviy sifatlarni barqarorlashtirish hamda zarur taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish uchun yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratilganligini qayd etish maqsadli bo'lib, shu muammoni ustuvor vazifalar sifatida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muhim asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasi

¹ Library of Congress Cataloging in Publication Data. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5®) // American Psychiatric Association. – 5-8 th. Printing, 2019.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» <http://lex.uz/docs/3107036>

to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-son «Turizm, sport va madaniy meros sohaslarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017-yil 15-fevraldagi PF-4956-son «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlar, 2019-yil 13-fevraldagi PQ-118-son «2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan Sh.V.Azizova, M.G.Davletshin, A.A.Fayzullayev, B.G.Gappirov, E.M.Muxtorov, E.A.Quljonov, R.I.Sunnatova, B.N.Sirliyev, G.I.Sattorova, N.S.Safayev, I.Xayriyev, M.Xakimova, O'.B.Shamsiyev, E.G'.G'oziyev va boshqalar shaxsda irodaviy sifatlarni rivojlantirishni va iroda kategoriyasining muammolari va ba'zi jihatlarini ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.M.Teplov, B.G.Ananev, M.V.Chumakov, Y.V.Eydman, V.I.Morosanova va boshqalar irodaviy sifatlarni o'zaro qiyoslashning miqdoriy jihatlarini, irodaviy sifatlarga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Xorijiy psixolog olimlaridan E.L.Deci, R.M.Ryan, M.Goleman, A.Adler, T.Gobbs, B.Spinoza, U.Jems, V.Vundt, J.Piaje va boshqalar irodaviy sifatlarni, irodaviy sifatlarning yoshga bog'liqligi, iroda motivlari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlar bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining «Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konsptual asoslarini tadqiq qilish» nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini tadqiq etish va irodaviy sifatlarni

rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining irodaviy sifatlarini rivojlanishidagi ustuvor jihatlarni aniqlash;

bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishda shaxs emosional sohasini barqarorlashtirishning ta'sirini ochib berish;

talabalarda irodaviy sifatlarni shakllanishiga mo'ljallangan psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish va samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyektini sifatida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari olingan bo'lib, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetidan 140 nafar va Buxoro davlat universitetidan 100 nafar, jami 240 nafar talabalar respondentlar sifatida tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, suhbat, intervyu, anketa usullari, shuningdek, N.E.Stambulovning «Irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasini baholash» metodikasi, Ch.Osgudning «SAN» metodikasi, V.I.Morosanovning «Xulq-atvorni o'z-o'zini boshqarish» metodikasi, hammualliflikdagi «Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni aniqlash» so'rovnomasi (dots. G.A.Yakubova, Sh.A.Dusanov)dan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni va K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining irodaviy sifatlarini rivojlanishida talabalardagi rejalashtirish, mustaqillik, moslashuvchanlik jihatlarni chidamlilik, tashabbuskorlik xususiyatlariga integrativ namoyon bo'lishiga asoslanib shaxsning o'z xulq-atvorini tartibga solishdagi differensial farqlar psixologik omil ekanligi isbotlangan;

bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining irodaviy sifatlarini rivojlanishida shaxsning maqsadga intiluvchanligi, tashabbuskorligi va chidamliligi emosional barqarorlikni kuchaytirganligi tufayli ta'lim jarayoniga bog'liq holda qat'iyatlilikning ustuvorligi aniqlangan;

bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishda talabalardagi qat'iyatliligi faollik va o'ziga ishonchni, moslashuvchanlik xususiyati esa hissiy holatga ta'siri tufayli shaxs emosional sohasini barqarorlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi dalillangan;

bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirish modeli talabalarning maqsadga intiluvchanlik, irodaviy zo'r berish jihatlarni stressli vaziyatlarda ustuvor namoyon bo'lishiga erishish orqali «motivatsion» komponentni «psixologik tayyorgarlik»ka integratsiyasi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari ishlab chiqilgan;

bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari amaliyotga kiritilgan;

bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik trening dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot o'tkazish jarayonida keltirilgan pedagogik-psixologik ma'lumotlar xalqaro miqyosda o'zining ishonchli ekanligini tasdiqlagan diagnostik vositalar orqali to'planganligi; o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi metodlar qo'llanilganligi; empirik ma'lumotlar matematik-statistik tahlil qilinganligi; berilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, shu bilan birgalikda, olingan yakuniy natijalar vakolatga ega bo'lgan tuzilmalar tomonidan rasmiy tasdiqlanganligi ma'lumotnomalar bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarning shakllanishiga oid ishlab chiqilgan metodologik-uslubiy tavsiyalar, korreksion trening dasturlari ushbu muammoning metodologik nazariy asoslarini takomillashtirishda o'z ifodasini topganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, olingan ma'lumotlardan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlariga qaratilgan dasturni takomillashtirishda, talabalar uchun «Umumiy psixologiya», «Yosh va pedagogik psixologiya», «Kasbiy psixologiya», «Psixologiya tarixi» fanlaridan darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda va ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: «Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari» bo'yicha olingan natijalar asosida:

bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining irodaviy sifatlarni rivojlanishida talabalardagi rejalashtirish, mustaqillik, moslashuvchanlik jihatlarini chidamlilik, tashabbuskorlik xususiyatlariga integrativ namoyon bo'lishiga asoslanib shaxsning o'z xulq-atvorini tartibga solishdagi differensial farqlar psixologik omil ekanligi isbotlangan ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-335-son buyrug'iga ko'ra "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 7-apreldagi PM-335a-son ma'lumotnoma). Natijada bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan;

bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining irodaviy sifatlarni rivojlanishida shaxsning maqsadga intiluvchanligi, tashabbuskorligi va chidamliligi emotsional barqarorlikni kuchaytirganligi tufayli ta'lim jarayoniga bog'liq holda qat'iyatlilikning ustuvorligi aniqlangan ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-335-son buyrug'iga ko'ra "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya"

moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 7-apreldagi PM-335a-son ma’lumotnoma). Natijada bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining irodaviy sifatlarini rivojlanishidagi ustuvor jihatlari ochib berilgan;

bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishda talabalardagi qat’iyatlilik faollik va o‘ziga ishonchni, moslashuvchanlik xususiyati esa hissiy holatga ta’siri tufayli shaxs emotsional sohasini barqarorlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi dalillangan ma’lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-335-son buyrug‘iga ko‘ra “Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya” moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 7-apreldagi PM-335a-son ma’lumotnoma). Natijada bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishda shaxs emotsional sohasini barqarorlashtirishning ta’siri ochib berilgan;

bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirish modeli talabalarning maqsadga intiluvchanlik, irodaviy zo‘r berish jihatlarni stressli vaziyatlarda ustuvor namoyon bo‘lishiga erishish orqali “motivatsion” komponentni “psixologik tayyorgarlik”ka integratsiyasi asosida takomillashtirilgan ma’lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-335-son buyrug‘iga ko‘ra “Psixokorreksiya” moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 7-apreldagi PM-335a-son ma’lumotnoma). Natijada talabalarda irodaviy sifatlarni shakllanishiga mo‘ljallangan psixologik trening dasturlarini ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo‘yicha 12 ta ilmiy maqola, ularning 4 tasi O‘zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 1 tasi xorijiy jurnalda, 3 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyon ish kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi ilovalarsiz 140 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan, qo‘llanilgan metodlar, tadqiqot obyekti hamda predmeti aniqlashtirilgan, ilmiy ishning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda joriy etilishi,

ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida irodaviy sifatlarni rivojlantirish muammosining nazariy-ilmiy asoslariga tayangan holda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyatining pedagogik-psixologik tamoyillari bilan bog'liq tahliliy sharhlar keltirilgan. Shuningdek, irodaviy sifatlarni muammosi bo'yicha xorij hamda mamlakatimiz psixolog olimlarining mavzuga oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan.

Dissertatsiyaning «**Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning empirik jihatlarini**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning empirik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va talabalar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar orasidagi korrelyatsion bog'lanishlar natijalari o'z aksini topgan.

Tadqiqot maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, V.I.Morosanovanning «Xulq-atvorni o'z-o'zini boshqarish» metodikasi natijalarini tahliliga o'tamiz, 1-jadvalga qarang.

1-jadval

V.I.Morosanovanning «Xulq-atvorni o'z-o'zini boshqarish» metodikasi natijalari (n=240)

Shkalalar	O'rtacha (M)		Farqlar t
	2-kurs n=130	4-kurs n=110	
Rejalashtirish	6,4	4,7	-2,2*
Mustaqillik	4,7	6,9	-2,3*
Moslashuvchanlik	4,9	6,7	-2,1*
Natijalarni baholash	5,2	7,8	-2,5*

«O'z xulq-atvorini tartibga solish uslubi» metodikasi orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, bir qator omillarda ishonchli farqlar kuzatildi. Jumladan, «rejalashtirish» ($t=-2,2$; $p<0,05$), «mustaqillik» ($t=-2,3$; $p<0,05$), «moslashuvchanlik» ($t=-2,1$; $p<0,05$) hamda «natijalarni baholash» ($t=-2,5$; $p<0,05$) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «rejalashtirish» omili bo'yicha 2-bosqich talabalarida yuqori natija qayd etildi ($t=-2,2$; $p<0,05$). Olingan natijalar tahliliga ko'ra, 2-bosqich talabalarida rejalashtirishga nisbatan ijobiy yondashuvning mavjudligi, ularning o'quv jarayonida intizomli va aniq maqsad sari harakat qilishiga nisbatan intilish, o'z maqsadlariga erishish yo'lida tizimli ravishda ishlashni o'rganayotganliklari, mas'uliyat va mustahkam intizom tuyg'usining rivojlanganligi, vaqtni samarali boshqarish ko'nikmasi kabi jihatlarining ustunligi dalillandi. Ushbu bosqichda talabalarning rejalarni aniq va tartibli ravishda tuzishlari, ularning keyingi kurslardagi faoliyatida ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida rejalashtirish omilining rivojlanganligi, ularga pedagogik faoliyatda intizomni saqlash va samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Rejalashtirish

qobiliyati ularga faqat o'quv jarayonida emas, balki kelajakda mustaqil ravishda ishlash uchun ham zamin yaratadi. Talabalarning rejalashtirishga nisbatan yuqori natijalar ko'rsatishi, ular kelgusida murakkab vaziyatlarda qanday harakat qilishni biladigan professional mutaxassislar bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

«Mustaqillik» omili bo'yicha ham kurslar kesimida sezilarli tafovut aniqlanib, 4-bosqich talabalari yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Bu esa ularda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanib borayotganligini anglatadi. Jumladan, bu bosqichdagi talabalarda o'z kuchlariga tayanib, o'z fikrlarini himoya qilish va muammolarni mustaqil hal qilishga qodir ekanliklari, turli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish kabi jihatlarning mavjudligi asoslandi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirish, ularga kelajakdagi pedagogik faoliyatlarida samarali ish yuritishga ko'maklashadi. Bu natijalar ular o'qituvchi sifatida o'zining pedagogik yo'nalishini shakllantirishda faol bo'lishini ko'rsatadi. Mustaqillik omilining yuqori darajasi, shuningdek, ularga ijodiy fikrlash imkonini ham beradi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining mustaqil ishlash qobiliyati, ularning o'z-o'ziga ishonch va mas'uliyat darajasini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu talabalarga pedagogik jarayonlarda o'z fikrlarini ifodalashda dadil bo'lishga va o'zlariga ishonch bilan harakat qilishga yordam beradi.

Metodikadagi «moslashuvchanlik» omili bo'yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,1$; $p<0,05$). Jumladan, moslashuvchanlik ularning turli xil vaziyatlarga tez moslashish va ularni samarali hal qilish qobiliyatini ifodalaydi. Shuningdek, mazkur natijalarning ijobiyligi ushbu bosqichda talabalarning yangi o'quv jarayonlariga tezkor moslashuvi, ularning pedagogik vaziyatlarda ijodiy yechim topishiga yordam beradi. Ma'lum bo'lishicha, ularda o'qituvchi sifatida moslashuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish orqali har qanday vaziyatda samarali va mantiqiy qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari, kutilmagan sharoitlarda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushunish, stressli sharoitlarga bardoshli bo'lishiga va ularda vaziyatga mos ravishda yechim topish qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashishi, kelajakdagi murabbiylik faoliyatida turli to'siqlarni yengishga va muammolarni tezkorlik bilan hal qilishga yordam berishi dalillandi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida moslashuvchanlik darajasi yuqori bo'lishi, ularning har qanday pedagogik muhitga tezda moslashib, samarali natijaga erishishiga imkon beradi. Shuningdek, talabalarning moslashuvchanlik ko'nikmasi, ularni dars jarayonida ijodiy va zamonaviy uslublardan foydalanishga undaydi. Moslashuvchanlik qobiliyati ularning pedagogik jarayonlarda innovatsion yondashuvlar yaratishlariga va o'z tajribalarini boyitishga xizmat qiladi.

Keyingi «natijalarni baholash» omilida ham sezilarli tafovut mavjud bo'lib, 4-bosqich talabalari 2-bosqich talabalariga qaraganda yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,5$; $p<0,05$). Bu talabalarning o'z ishlarini samarali baholash va o'zlarini rivojlantirish yo'llarini aniqlash qobiliyatini ifodalaydi. Jumladan, 4-bosqich talabalarida o'z faoliyatlari samaradorligini kuzatish va uni takomillashtirish qobiliyatining mavjudligi, o'zlarining harakatlarini mantiqiy tahlil qilish, o'qituvchi sifatida o'z darslarini qanday rivojlantirish va yanada samarali qilish yo'llarini topishga intilish, kelgusidagi rejalarini aniq va samarali boshqara olish kabi xususiyatlarning yuqori

darajada rivojlanganligi aniqlandi. Shuningdek, natijalarni baholash ularga pedagogik jarayonda o'zlarini takomillashtirish va professional rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu qobiliyat ularni kelajakda professional faoliyatlarida o'z natijalarini yaxshilashga va o'zini o'zi rivojlantirish yo'llarini izlashga o'rgatadi. Natijalarni baholash omili talabalarning mustaqil tahlil qilish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhimdir. Shu tarzda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari natijalarni baholash orqali o'zlarining professional mahoratlarini oshirib, pedagogik faoliyatda yanada samarali bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

2-jadval

N.E.Stambulovning «Irodaviy sifatlarining rivojlanish darajasini baholash» metodikasi natijalari (n=240)

Shkalalar	O'rtacha(M)		Farqlar
	2-kurs n=130	4-kurs n=110	t
Maqsadga intilish	18,6	21,9	-2,6*
Jasorat	17,6	20,4	-2,8*
Matonat	19,2	22,6	-2,3*
Tashabbuskorlik	18,5	21,7	-2,6*
Chidamlilik	17,9	20,5	-2,5*

2-jadvalda «maqsadga intilish» ($t=-2,6$; $p<0,05$), «jasorat» ($t=-2,8$; $p<0,05$), «matonat» ($t=-2,3$; $p<0,05$), «tashabbuskorlik» ($t=-2,6$; $p<0,05$) hamda «chidamlilik» ($t=-2,5$; $p<0,05$) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «maqsadga intilish» omili 4-bosqich talabalarida yuqori natijani ko'rsatdi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Bu esa ularning aniq maqsad sari intilishlari va uni amalga oshirishda qat'iyatliliklarini namoyon qiladi. Jumladan, 4-bosqich talabalarida o'z maqsadlarini rejalashtirish va har bir qadamni aniq bajarish qobiliyatlarining mavjudligi, o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda ijodiy va samarali yo'llar topishga, doimiy o'z ustida ishlash va shaxsiy o'sishga intilishlari, o'z yo'lini topishda va ularga intilish zarurligini ko'rsatishda yordam berishga qodir ekanliklari dalillandi. Maqsadga intilish darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchilar o'quvchilarini ham maqsadga yo'naltirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadilar. Shuningdek, ularning maqsadga intilish xususiyati murakkab vaziyatlarda ham yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Maqsadga intilish orqali ular o'z kasbiy rivojlanishlariga katta e'tibor qaratadilar va professional o'sishga intiladilar.

Keyingi «jasorat» omili bo'yicha, 4-bosqich talabalarida yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,8$; $p<0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, 4-bosqich talabalarida har qanday vaziyatda ham o'z fikrini ochiq aytish va to'g'ri qaror qabul qilishga qodirligi, murakkab vaziyatlarda jasorat ko'rsatish va ular bilan yuzma-yuz kelishga, pedagogik faoliyatda o'z maqsadlariga erishish uchun qaltis qarorlar qabul qilishga ham tayyor ekanliklari, o'z qarorlarini himoya qilish va turli sharoitlarda muammolarni hal qilish uchun ishonchning mavjudligi asoslandi. Shuningdek, ular murakkab muammolarni yengishga jasorat bilan yondashib, turli pedagogik usullarni sinab ko'rishdan cho'chimasliklariga imkon yaratadi. Ularning jasorati murakkab vaziyatlarda tez va

to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu ularning o'z faoliyatlarida qo'rqmasdan harakat qilish va qiyinchiliklarga bardosh berishlariga xizmat qiladi. Shuningdek, jasoratli o'qituvchilar o'quvchilarni ham o'z fikrini erkin ifoda qilishga va turli qiyinchiliklarga qarshi turishga undaydi. Bu sifat ularni kelgusida pedagogik jarayonlarda mustahkamroq qiladi va samarali ishlashga yordam beradi.

Navbatdagi «matonat» omili bo'yicha, 4-bosqich talabalarida yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Ma'lum bo'lishicha, 4-bosqich talabalarida qiyin vaziyatlarda ham matonat bilan harakat qilishlari, o'z vazifalarini oxirigacha bajara olish va hech bir to'siqqa duch kelmay o'z yo'llarini topishga intilish, murakkab pedagogik vaziyatlarda ham o'z qadamlarini to'xtatmay, shijoat bilan ishlashga qodirliklari aoslandi. Bu esa jamoada motivatsiya va mustahkamlikni saqlash imkonini beradi. Shuningdek, matonat ularga o'z maqsadlariga erishish yo'lida qat'iyat va bardoshlilikni rivojlantirishga yordam beradi. Ularning matonat darajasining yuqoriligi ularga pedagogik faoliyatda murakkab sharoitlarda ishlash qobiliyatini beradi. Bu ularni mustahkam va matonatli shaxslar sifatida shakllantirib, kelajakdagi pedagogik faoliyatlarida qiyinchiliklarga qarshi turish imkoniyatini oshiradi.

«Tashabbuskorlik» omiliga ko'ra, 4-bosqich talabalarida ijobiy natijalar kuzatildi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Bu esa ularda ijodkorlik va tashabbus ko'rsatishga bo'lgan intilishning yuqori ekanligini anglatadi. Jumladan, 4-bosqich talabalarida har qanday vaziyatda yangi g'oyalar yaratish va ijodiy yondashuvlar ishlab chiqish qobiliyatining mavjudligi, o'z faoliyatlarida yangi usullarni sinab ko'rishga intilib, o'quv jarayonini boyitishga harkat qilishlari, ijodiy faoliyatda faol ishtirok etish va o'z fikrlarini ochiq ifoda qilish imkoniyatning mavjudligi, tashabbuskorlik orqali murakkab vaziyatlarda ham yangi usullar topib, muammolarni hal qilishga intilishlari aniqlandi. Bu ularni nafaqat o'qituvchi, balki ijodiy rahbar sifatida shakllantirishga ko'mak beradi. Tashabbuskor o'qituvchilar, shuningdek, o'z o'quvchilarini ijodiy ishlashga va o'z tashabbuslarini ko'rsatishga undaydilar. Bu sifat ularga pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuvlar ishlab chiqish imkoniyatini beradi va o'z ishlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Metodikaning so'nggi «chidamlilik» omiliga ko'ra, 4-bosqich talabalarida ijobiy natijalar qayd etildi ($t=-2,5$; $p<0,05$). Bu esa ularda murakkab va stressli sharoitlarda ham sabr-toqat va bardoshlilik bilan ishlash qobiliyatining rivojlanganligini bildiradi. Jumladan, 4-bosqich talabalarida pedagogik jarayonda turli qiyinchiliklarga qarshi turish va ularga barqarorlik bilan javob berish, stress va bosim ostida ham samarali harkat qilishlari kuzatildi. Bu ularga murakkab sharoitlarda o'zini tuta olish va vaziyatni boshqarish qobiliyatini beradi. Chidamlilik ularga murabbiy sifatida yuqori darajadagi mas'uliyatni saqlash va o'quvchilarga ham bardoshli bo'lishni o'rgatishda yordam beradi. Bu ularning pedagogik faoliyatda o'zini nazorat qilish va har qanday holatda ham o'z vazifalarini bajarishga intilishini bildiradi. Shuningdek, chidamlilik ularni o'z-o'zini boshqarishga va qiyin vaziyatlarda ham motivatsiyani saqlashga xizmat qiladi. Mazkur sifat ularga o'z faoliyatlarida samarali bo'lish va o'zlarini mustahkam tuta olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, chidamlilik ularga kelajakda pedagogik faoliyatda yanada barqaror va mas'uliyatli bo'lishlariga xizmat qiladi, bu esa ularni professional rivojlanishga undaydi.

3-jadvalda «Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni aniqlash so'rovnomasi» va N.E.Stambulovning «Irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasini baholash» metodikasi o'rtasidagi aloqadorlik ko'rsatkichlari keltirilgan.

3-jadval

«Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni aniqlash so'rovnomasi» va N.E.Stambulovning «Irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasini baholash» metodikasi o'rtasidagi aloqadorlik (n=240)

Omillar	Qat'iyat	Moslashuvchanlik	Emotsional barqarorlik
Maqsadga intilish	0,34*	0,15	0,19
Jasorat	0,12	0,12	0,33*
Matonat	0,09	0,37*	0,16
Tashabbuskorlik	0,35*	0,16	0,15
Chidamlilik	0,10	-0,10	0,38*

«Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida irodaviy sifatlarni aniqlash so'rovnomasi» hamda N.E.Stambulova tomonidan ishlab chiqilgan «Irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasini baholash» metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar natijalariga ko'ra «qat'iyat» omili «maqsadga intilish» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) hamda «tashabbuskorlik» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «moslashuvchanlik» omili «matonat» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) omili bilan, «emotsional barqarorlik» omili «jasorat» ($r=0,33$; $p\leq 0,05$) hamda «chidamlilik» ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) omillari bilan ijobiy bog'lanishlar qayd etildi.

«Qat'iyat» va «Maqsadga Intilish» omillari o'rtasidagi bog'lanish natijalari shuni ko'rsatadiki, qat'iyatli talabalarda maqsad sari intilish kuchliroq bo'ladi ($r=0,34$; $p\leq 0,05$). Bu bog'lanish ularning har qanday sharoitda belgilangan maqsadlariga erishish uchun qat'iy harakat qilishlariga imkon yaratadi. Qat'iyatli shaxslar ko'pincha o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yadilar va ularga erishish uchun o'z ustida ishlashdan cho'chimasliklari bilan ajralib turadilar. Maqsadga intilishning yuqori darajasi, o'z navbatida, qat'iyatli shaxsni harakatlarida izchil bo'lishga undaydi. Ushbu ijobiy bog'lanish orqali bo'lajak o'qituvchilar qiyinchiliklarga duch kelganda o'zlarini yo'qotmasdan maqsad sari yo'nalishga qodir ekanliklarini anglatadi. Qat'iyatli talabalarda maqsadga erishish yo'lida bardoshli va mustahkam xarakter shakllanadi. Bu esa ularga pedagogik faoliyatda o'z o'quvchilarini maqsad sari yo'naltirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, qat'iyatning kuchayishi ularga o'z oldiga qo'ygan har qanday vazifalarni amalga oshirishda kuchliroq motivatsiya yaratadi. Maqsadga intilish bilan birgalikda qat'iyatli o'qituvchilar turli pedagogik muammolarni yengishga va o'z oldiga qo'ygan vazifalarini samarali bajarishga qodir bo'ladi. Shu orqali ularning irodaviy xususiyatlari kelgusida yanada mustahkamlanadi va o'ziga xos maqsadlar sari intilish kuchliroq shakllanadi.

«Qat'iyat» omili hamda «tashabbuskorlik» omili o'rtasidagi bog'lanish esa qat'iyatli bo'lgan talabalarning tashabbus ko'rsatishda faol bo'lishlarini belgilaydi ($r=0,35$; $p\leq 0,05$). Bu bog'lanish talabalarning o'z maqsadlariga intilish jarayonida

ijodkorlik va o'z tashabbuslarini amalga oshirishga intilishlarini kuchaytiradi. Qat'iyat ularning yangi g'oyalarni ilgari surish va turli pedagogik yondashuvlarni sinab ko'rishda qo'rqmasdan harakat qilishlariga zamin yaratadi. Tashabbuskorlik ularga murakkab vaziyatlarda yangi usullar yaratish va o'z g'oyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Qat'iyatli o'qituvchilar tashabbuskorlik orqali ijodiy ishlashga intilib, turli o'quv jarayonlarini boyitishga muvaffaq bo'lishlari mumkin. Shuningdek, qat'iyat talabalarga o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni ijodiy yondashuvlar orqali bajarishda yordam beradi. Tashabbuskorlik ularning kasbiy rivojlanishlariga yordam berib, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Bu bog'lanish orqali qat'iyatli o'qituvchilar pedagogik faoliyatda yangilik yaratish va ularga moslashishda tezkor bo'lishadi. Qat'iyat va tashabbuskorlik birgalikda o'zini yanada kuchliroq namoyon qilib, o'quv jarayonida yangi va ijodiy yondashuvlarni sinab ko'rishga rag'batlantiradi. Bu esa ularga kelajakda muvaffaqiyatli o'qituvchi sifatida shakllanishida yordam beradi.

«Moslashuvchanlik» omili hamda «matonat» omili o'rtasidagi bog'lanish natijalari moslashuvchan talabalarning matonat ko'rsatishda ham yuqori natijalarga erishishlarini bildiradi ($r=0,34$; $p\leq 0,05$). Bu bog'lanish ularning turli sharoitlarda bardoshli va izchil bo'lishlarini ifodalaydi, bu esa pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega. Moslashuvchanlik ularga murakkab sharoitlarga moslashish va ularni oson yengib o'tishga imkon beradi. Matonat esa talabalarga turli to'siqlarni yengishga va o'z yo'lidan qaytmaslikka yordam beradi. Moslashuvchanlik va matonatning birgalikdagi ta'siri, ularning stressli vaziyatlarda ham samarali ishlashiga yordam beradi. Bu bog'lanish ularga pedagogik jarayonda kuchliroq xotirjamlik va barqarorlik saqlash imkonini yaratadi. Shuningdek, moslashuvchan talabalarning matonat bilan ishlash qobiliyati, ularga murakkab sharoitlarda o'zlarini tuta olish va o'z maqsadlariga intilishda davom etish imkonini beradi. Moslashuvchanlik ularga turli vaziyatlarda yangi yechimlar topishga va o'z yo'llarini mustahkam saqlashga imkon beradi. Bu sifatlarning birgalikdagi ta'siri ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishlari uchun katta imkoniyat yaratadi. Moslashuvchanlik va matonat ularning o'z-o'zini nazorat qilish va pedagogik jarayonda doimiy ravishda samarali ishlash qobiliyatlarini kuchaytiradi. Shuningdek, bu sifatlarga ularga kelajakda yuqori darajadagi professional o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi.

«Emotsional barqarorlik» omili va «jasorat» omili o'rtasidagi bog'lanish emotsional jihatdan barqaror bo'lgan talabalarning jasorat ko'rsatishda yuqori qobiliyatga ega ekanliklarini ifodalaydi ($r=0,33$; $p\leq 0,05$). Emotsional barqarorlik ularga stressli vaziyatlarda xotirjam bo'lish va o'z his-tuyg'ularini boshqarish imkonini yaratadi. Bu bog'lanish ularning murakkab sharoitlarda jasorat bilan harakat qilish va to'g'ri qaror qabul qilishlariga imkon beradi. Jasorat ularga turli pedagogik vaziyatlarda o'z fikrlarini ochiq aytish va o'quv jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Emotsional barqarorlik ularning o'zlarini pedagogik jarayonda erkin his qilishlariga va murakkab vaziyatlarga qarshi turishga yordam beradi. Bu sifat ularning o'z o'quvchilari bilan ishonchli munosabat o'rnatishlariga yordam beradi. Jasorat ularni o'quvchilar oldida kuchli va ishonchli shaxs sifatida ko'rsatadi. Emotsional barqarorlik esa ularga qiyinchiliklar oldida kuchli ruhiy bardoshlilik bilan javob berishga yordam beradi. Bu sifatlarning birgalikdagi ta'siri o'qituvchilarga o'z

o'quvchilariga motivatsiya berish va ularga ham jasoratli bo'lishni o'rgatishga imkon yaratadi.

